

SUN'IY IDROKNING KELAJAKKA TA'SIRI: UNING INSONIYAT HAYOTIDAGI AHAMIYATI

Zarifaxon Sidiqova

*Farg'ona davlat universiteti filologiya fakulteti
o'zbek tili yo'nalishi 1-kurs talabasi*

Ilhomjon Aldashev

*Farg'ona davlat universiteti axborot
texnologiyalari kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada sun'iy intellektning hozirga qadar bo'lgan tarixi o'rganilgan. sun'iy idrok va ong tushunchalari bir-biridan farqlangan. U haqidagi turli qarashlarning kelajakda sodir bo'lish yoki bo'lmaslik ehtimollari ilmiy asoslangan va bu borada mutaxassislar fikri berib o'tilgan. Sun'iy intellektning keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan xavflari hamda ularning chora-tadbirlari to'g'risida yechim berilgan. Kelajakda sun'iy intellekt insoniyatga berishi mumkin bo'lgan 3 ta asosiy foydalari sanab o'tilib, undan to'g'ri foydalanish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *sun'iy intellekt, to'rtinchi sanoat inqilobi, ChatGPT, Midjourney, Bing, axborot bazasi, hisoblash resurslari, Dragon;*

FUTURE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE: ITS SIGNIFICANCE IN HUMANITY'S LIFE

Abstract: *This scientific article examines the history of artificial intelligence up to now. The concepts of artificial perception and consciousness are different from each other. The probability of different views about its happening or not happening in the future is based on science and the opinion of experts has been given in this regard. A solution to possible dangers of artificial intelligence and their measures is provided. 3 main benefits that artificial intelligence can bring to humanity in the future are listed, and recommendations for its proper use are given.*

Keywords: *artificial intelligence, the fourth industrial revolution, ChatGPT, Midjourney, Bing, information base, computing resources, Dragon;*

Tabiiy idrok tomonidan yaratilgan va yaratilayotgan sun'iy idrok hozirgi kunda hayotimizning ko'p jabhalariga o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Endilikda bir masala yuzasidan uzoq o'ylanib o'tirishga hojat qolmaganligini odamlarning " Bu masalani sun'iy idrok bir zumda yechib beradi", " Kompyuterdan foydalanishni bilsang, ishing tez va oson bitadi" qabilidagi so'zlaridan ham bilish mumkin. Xo'sh, aslida sun'iy idrok nima? Uning jamiyatga ijobiy va salbiy tomonlari nimalardan iborat? Eng asosiysi sun'iy intellekt kun sayin rivojlanib borishi bizni qayoqqa olib boradi?

Sun'iy intellekt tarixiga nazar soladigan bo'lsak, o'ylash qobiliyatiga ega mashinaning ilk g'oyasi qadimgi Yunonistonda paydo bo'lgan. Miloddan avvalgi I asrda qadimgi Yunonistonda astronomik hodisalarni tahmin qiluvchi uskuna yaratilgan. Hozirgi kundagi sun'iy intellekt haqida esa odamlar 1950-yilda o'ylashni boshlashgan. Olim Alan Turing birinchi bo'lib matematika yordamida shunday programma yaratilish mumkinligini isbotlab bergan. Lekin o'sha davr kompyuterlarining funksiyalari cheklanganligi bois bu ish farazligicha qolib ketdi.

Sun'iy intellekt tarixidagi keyingi tarixiy voqea 1956-yilda Dartmouth universitetida ilk marotaba sun'iy intellekt dasturini namoyish qilish orqali ro'y berdi. Aynan AI – Artificial intelligence atamasini ushbu konferensiyaga mezbonlik qilgan olim John Maccarthy kiritgan. Keyinchalik bu sohaning jadal rivojlanishi natijasida 1997-yilda Deep Blue deb nomlanuvchi sun'iy intellekt chempion Harry Kasparovni ajoyib tarzda mot qilgan. Shu yilni o'zida nutqni ham tanuvchi sun'iy intellekt taqdim qilingan va uning nomi "Dragon" deb atalgan. Bugungi kunda esa Midjourney, ChatGPT, Bing kabi bizni hayratda qoldirayotgan sun'iy intellektlar paydo bo'ldi.

Yodga olishimiz kerakki, birinchi sanoat inqilobi (XVIII- XIX asr)da qo'l mehnatiga asoslangan manufaktura sanoatidan mashina mehnatiga va yirik industiriyaga o'tish jarayoni sodir bo'lgan. U mehnat unumdorligining keskin o'sishi , urbanizatsiya va mamlakatning iqtisodiy o'sishining boshlanishi va aholi turmush darajasining oshishiga olib keldi.

Ikkinchi sanoat inqilobi (1870-1914) yangiliklarga asoslanib yuqori sifatli po'lat ishlab chiqarish, temiryo'llar, elektr va kimyoviy moddalarning ko'payishi hamda konver tipidagi ommaviy ishlab chiqarishga asoslangan edi.

Uchinchi sanoat inqilobi (1960-) esa ishlab chiqarishni avtomatlashtirish, atom energiyasidan foydalanish, aloqa tarmoqlarining paydo bo'lishi hamda matematik va mantiqiy operatsiyalarni bajara oladigan intellektual mashinalar , ya'ni kompyuterlar paydo bo'ldi.

Insoniyat o'z xizmati uchun ana shunday elektron hisoblash mashinalarini joriy qila boshlashi bilanoq sun'iy intellekt masalasidagi bahslar ham yangi o'zanga burildi. Bugungi kunda ko'pgina olim va mutaxassislar fikriga ko'ra insoniyat hayotining navbatdagi inqilobiy o'zgarishi sun'iy intellekt bilan bog'liq. Shu ma'noda sun'iy idrok to'rtinchi sanoat inqilobining asosi sifatida qaralmoqda. Agarki, kelajakda sun'iy intellekt to'rtinchi inqilobni yuzaga keltirsa, oldamlar qarshisida turgan eng katta xavflardan biri bu ommaviy ishsizlik bo'lib qoladi. Xuddi yuqoridagi uch bosqich inqilobda tez sur'atda texnikaning mehnat bozoriga kirib kelishi ishsizlik darajasini ko'tarishiga teskari ravishda baxtlilik dofaminini tushirib yuborgani kabi bunda ham keskin noroziliklar bo'lishi tabiiy. Statistika asoslanadigan bo'lsak, 2025-yilga kelib sun'iy intellekt sababli 85 million ish o'rni yo'qolishi bilan bir qatorda yangi 95 million odamlar uchun ish o'rni yaratiladi. Bundan xulosa qilish mumkinki, kelajakda og'ir mehnat, qora ishchi qatlamlariga ehtiyoj qolmaydi, barcha ish o'rinlari yuqori aqliy salohiyatni talab qiladi.

Shu o'rinda ong va intellektning bir-biridan ayricha tushunchalar ekanligini ham unutmash lozim, chunki intellekt har narsada: insonlar, hayvonlar, mashinalarda turli darajalarda bo'lishi mumkin. Demak, intellekt bizga axborot olish, uni saqlash, uzatish, qayta ishlash va qaror qabul qila olish imkoniyatlarini beradi, lekin ong faqatgina insonga xos fenomendir. Ong hissiyotga ega bo'lgan ruhiyatning oliy shakli desa bo'ladi.

Endilikda savol tug'iladi: Sun'iy intellekt idrok eta olish qobiliyatiga ega bo'lsa, kelajakda fantastik kinolar syujeti hayotga ko'chish imkoniyati bormi, ya'ni sun'iy idrok insoniyat boshqaruvini o'z qo'liga oladimi? Bu boradagi internet izlanishlarimiz shuni ko'rsatdiki, yuqorida aytganimizdek sun'iy intellekt faqatgina avvalgi tajribalaridan kelib chiqqan xulosalari bo'yicha o'z muammosiga yangicha yechimlar topa oladi, ammo shunda ham uning darajasi tabiiy ongnikidan pastroq. Hozirda deyarli barcha sun'iy intellektlar odamlar tomonidan berilgan savol, muammo va masalalar bo'yicha javob bera olish qobiliyatigagina ega. Shunga qaramay, Ilon Mask ham hozirda yangi sun'iy intellektlar ustida ish olib borishni to'xtatib turish kerakligi, chunki bunga hali insoniyat to'la tayyor emasligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan sun'iy intellektni 3 turga ajratish mumkin:

- 1.Kuchsiz sun'iy intellekt
- 2.Kuchli sun'iy intellekt
- 3.Super kuchli sun'iy intellekt

Insonlar tomonidan qo'yilgan ta'qiqalar, berilgan topshiriqlar va o'rnatilgan dasturlardan chetlasha olmay faqat shular doirasida ish ko'radigan intellektlar kuchsiz intellektlardir. Shu kungacha yaratilgan barcha sun'iy intellektlar shu turkumga kiradi. Keyingisi - kuchli sun'iy intellektlar, ammo yaqin zamonlarda bunday sun'iy intellekt yaratish qiyin va shu bilan birga xavfli masaladir. Masalan, " Temir odam" filmidagi yordamchi qurilma – Jarvis kuchli sun'iy idrokka misol bo'la oladi. Super kuchli intellektlarni esa ba'zi olimlar iloji bor deb ishonsa, ikkinchi toifa fan kishilari bunga shubha bilan qaraydilar. Agar bunday turdagi intellekt yaratilsa, xuddi filmlardagi kabi individual fikr yuritib, axborotni tahlil qila oladigan va unga o'z munosabatini bildira oladigan darajada takomillashgan robotlar ko'rinishida bo'lishi ehtimol. Ayni shu bosqich insoniyat uchun katta talafotlar va yo'qotishlar olib kelishi mumkin. Umuman olganda esa hozirgi kuchsiz sun'iy intellektlar davrida ulardan xayiqish emas, balki ulardan foydalana bilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Sun'iy intellekt haqidagi bahs-munozaralar qariyb 50 yildan beri davom etib kelmoqda. Mutaxassislar hanuzgacha bir to'xtamga kelishgani yo'q. Ba'zilar ularning ommalashib, odamlar o'rnini egallab borayotgani natijasida ommaviy ishsizlik ko'rsatkichlari oshib ketishi mumkinligidan tashvishdalar. Mutaxassislarning boshqa bir turi esa sun'iy intellektga ijobiy munosabatda bo'lish kerakligini uqtirishmoqda. Hatto IT sohasidagi milliarderlar orasida ham turli qarashlar mavjud.

Jumladan, SpaceX asoschisi Ilon Mask sun'iy intellektning butun boshli svilizatsiyani barbod qilishiga ishonchi komil. Maskning fikricha: " Sun'iy intellekt

insoniyat svilizatsiyasi uchun asosiy xavfdir. Sun'iy intellekt mehnat bilan bog'liq ommaviy muammolarni keltirib chiqaradi. Sababi, robotlar hamma ishni bizdan ko'ra yaxshiroq bajara olishadi. Ilg'or texnologiyalar ortidan quvish natijasida kompaniyalar sun'iy intellektlar ortidan kelib chiqadigan xavf-xatarni ko'rmay qolishlari mumkin".

Shuningdek, Microsoft rahbari Bill Geyts ham uning zarariga to'xtalib o'tadi:

"Bir necha o'n yildan so'ng, robotlar ishning katta qismini bajara boshlagach, sun'iy intellekt shu qadar kuchayib ketadiki, yakunda u bizni xavotirga sola boshlaydi. Bu borada Ilon Maskning fikriga qo'shilaman. Ammo nega bu savol boshqalarni tashvishlantirmayotganiga hech tushunmayman", - deydi Bill Geyts.

"Boshqalar" deganda Geyts Facebook egasi Mark Sukurbergni nazarda tutgan bo'lsa, ajab emas. Chunki Mark sun'iy intellektga nisbatan ijobiy munosabatda ekanini bildirar ekan: " Yangi texnologiyalar har doim ham yaxshilik yoki yomonlik qilish maqsadida yaratilishi mumkin. Sun'iy intellektning keng tarqalishi ortidan keladigan ijobiy natijasini esa yaqin 5-10 yil ichida ko'ramiz", - deya Ilon Maskning fikriga e'tiroz bildirgan edi.

Sun'iy intellektning keng qo'llanilishiga uchta sabab:

Hozirda sun'iy intellektning sohalarga joriy etilishi uchun turli sabablar keltirilmoqda, ulardan uchta eng asosiysini keltirib o'tamiz. Birinchisi, arzon narxlardagi yuqori samarali hisoblash resurslari. Ikkinchisi, ta'lim uchun katta hajmdagi ma'lumotlarning mavjudligi. Sun'iy intellekt mahsulining aniq prognozlarni amalga oshirishi uchun u katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashi kerak. Ushbu omil sabab turli vositalar, xususan, ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlashning oddiy hamda arzon vositalari, turli xil algoritmlar yaratildi.

Uchinchisi, sun'iy intellekt mahsulotlari raqobatbardoshlikni mustahkamlaydi. U kompaniyalar xarajatlarini va xavflarni kamaytirishi, bozorga chiqish imkoniyatini kengaytirishi hamda boshqa foydali omillar uchun ko'plab vositalarni taklif qila oladi. Natijada sun'iy intellekt joriy etilgan kompaniyalar raqobatga anchayin chidamli bo'ladi.

Qisqa qilib aytganda, sun'iy intellekt muayyan vazifalarni bajarishda inson xatti-harakatiga taqlid qilishga qodir bo'lgan tizim yoki texnologiya bo'lib, olingan ma'lumotlardan foydalanib asta-sekin mukammallashib boradi. Umuman olganda sun'iy intellekt format ham, funktsiya ham emas, balki bu jarayon bo'lib, ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish kabilarni o'z ichiga oladi.

Xulosa va tavsiya o'laroq shuni ayta olamizki, sun'iy intellektni ishchi sifatida odam bilan tenglashtirmasdan, unga tabiiy intellekt yaratgan ixtiro va o'zimizga yordamchi sifatida qarashimiz lozim. Ulardan samarali foydalanish uchun esa algoritmgiga mos ravishda savol berishni, kezi kelganda ta'qiq qo'yishni ham bilishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Kun.uz. (2023) Kelajakni o'zgartiruvchi sun'iy idrok: uning insoniyatga foyda - ziyoni nimada?
2. Otaqulov O., Pulatova G., Pulatov G', (2021) Sun'iy intellekt va uning insoniyat faoliyatida tutgan o'rni. 933
3. Abduqunduzova N., (2021) Sun'iy intellekt texnologik rivojlanish asosi. Yuz.uz
4. Anyoha R., (2017) The history of artificial intelligence. sitn.hms.harvard.edu